

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

YASHIL IQTISODIYOTNI BOSHQARISHDA RAQAMLI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARING O‘RNI

Karimov Mardon Akram o‘g‘li

TDIUSF “Moliya, soliq va bank ishi”

kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi va uning innovatsion boshqaruv usullari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, ekologik barqarorlik va texnologik innovatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion boshqaruv usullari orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari, xorijiy tajriba va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, yashil iqtisodiyotning samarali boshqarish mexanizmlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, innovatsion boshqaruv, ekologik barqarorlik, texnologik innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, barqaror taraqqiyot, ekologik menejment.

Annotation. The article provides a scientific and theoretical analysis of the concept of a green economy and its innovative management methods. The main principles of a green economy, the relationship between environmental sustainability and technological innovation are considered. It also studies the strategic directions, foreign experience and practical aspects of developing a green economy through innovative management methods. Based on the results of the research, proposals and recommendations are made on effective management mechanisms for a green economy.

Key words: Green economy, innovative management, environmental sustainability, technological innovation, economic development, sustainable development, environmental management.

Аннотация. В статье дается научно-теоретический анализ концепции зеленой экономики и инновационных методов ее управления. Рассмотрены основные принципы зеленой экономики, взаимосвязь экологической устойчивости и технологических инноваций. Также изучаются стратегические направления, зарубежный опыт и практические аспекты развития зеленой экономики с использованием инновационных методов управления. По результатам исследований разрабатываются предложения и рекомендации по эффективным механизмам управления зеленой экономикой.

Ключевые слова: Зелёная экономика, инновационный менеджмент, экологическая устойчивость, технологические инновации, экономическое развитие, устойчивое развитие, экологический менеджмент.

Kirish.

So‘nggi yillarda global miqyosda ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishlari insoniyat oldida dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ushbu muammolarni hal etish uchun

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

ko‘plab davlatlar “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga intilmoqda. “Yashil iqtisodiyot” atamasi iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi ham “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish borasida muhim qadamlar qo‘ymoqda. Xususan, 2019-yil 4-oktabrda “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlandi. Ushbu strategiya mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan [1].

Shuningdek, 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Mazkur qaror doirasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi tasdiqlandi. Dasturda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Yashil iqtisodiyot va uning innovatsion boshqaruvi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada boyidi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari, uni amalga oshirish tamoyillari va strategiyalarini qamrab oladi.

Jacques Defourny va Patrick Develttere (1999) o‘zlarining asarida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini jamiyatdagi uchinchilik sektor bilan bog‘lab, ekologik barqarorlik va innovatsion boshqaruv o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari yashil iqtisodiyotga ijtimoiy iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq qilish muhimligini ta’kidlaydi. Ular ekologik toza texnologiyalar va ijtimoiy manfaatlarni birlashtirgan holda yangi boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish zarurligini ilgari surgishgan [3], bo‘lsa Tim Jackson (2017) asarida yashil iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiy o‘sish modelini ishlab chiqqan. U hozirgi globallashgan iqtisodiy modelning ekologik barqarorlikka ta’sirini tahlil qilib, iqtisodiy o‘sish va resurslardan foydalanish o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilish yo’llarini taklif etadi. Jackson yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida innovatsion boshqaruv strategiyalarining ahamiyatini urg‘ulaydi va bu borada davlat siyosati bilan bir qatorda biznes subyektlarining ham faol ishtirok etishi kerakligini ko‘rsatib o‘tadi [4].

Peter Poschen (2015) kitobida yashil iqtisodiyotning ish o‘rinlari yaratishdagi o‘rni va barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasini o‘rganadi. Uning fikricha, yashil iqtisodiyot faqat ekologik muammolarni hal qilish bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy barqarorlik va aholi turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Poschen yashil iqtisodiyotga asoslangan boshqaruv tizimlarida innovatsion texnologiyalar va ekologik standartlarga muvofiq mehnat bozori islohotlarini amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi [5].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari yashil iqtisodiyotning innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha muhim nazariy hamda amaliy yondashuvlarni taklif qiladi. Ularning tadqiqotlari yashil iqtisodiyotni

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

rivojlantirishda davlat siyosati, xususiy sektor va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhimligini ko‘rsatadi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida ham ushbu tadqiqotlar asosida mos strategiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz olimlaridan ham ushbu mavzuda bir qator fikr va mulohazalar berib o‘tilgan, masalan, Mustafoqulov Y, va Qilichov S. “yashil iqtisodiyot” va uning rivojlanish bosqichlari haqida maqolada xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyotga o‘tish tamoyillari va amalga oshirish dastaklari qiyosiy tahlil etilgan bo‘lsa [6], Yormonqulova N. o‘zining maqolasida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, o‘tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va indikatorlari tahlil qilgan [7].

Bundan tashqari, Berdiyeva D. maqolasida yashil iqtisodiyot sharoitida uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqaruvi tizimidagi asosiy muammolar va ularni hal qilish yo’llari ko‘rib chiqqan bo‘lsa [8], Begmatova Sh.F. maqolasida yashil va barqaror iqtisodiyotga o‘tish innovatsiyalarni rivojlantirish, toza texnologiyalarni rivojlantirish va ekologik toza amaliyotlarni amalga oshirish uchun katta sarmoyalarni talab qilishi ta’kidlangan [9].

Tadqiqotlar metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotni innovatsion boshqarishning nazariy asoslarini ochib berish uchun sistematik tahlil usulidan foydalanildi. Empirik tadqiqotlar asosida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida qo‘llanilayotgan boshqaruv mexanizmlari o‘rganildi. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot bilan bog‘liq qonun hujjatlari va strategik dasturlar kontent-tahlil usuli yordamida tahlil qilindi. Xorijiy davlatlarning yashil iqtisodiyotga o‘tish tajribasi qiyosiy tahlil usuli asosida o‘rganildi.

Tahlil va natijalar.

Yashil iqtisodiyotni innovatsion boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni samarali boshqarish va barqaror rivojlanishni ta’minalash bilan chambarchas bog‘liq. Innovatsion yondashuvlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

1-jadval. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari

Tamoyil	Tavsif
Resurslarni qayta ishlash	Chiqindilarni qayta ishlash orqali resurslarni tejash.
Energiya samaradorligi	Energiya sarfini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.
Atrof-muhitni muhofaza qilish	Tabiatni ifloslanishdan himoya qilish va ekologik muvozanatni saqlash.
Ijtimoiy adolat	Aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta’minalash.

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

1-jadvalda yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va ularning amaliy tatbiqlari ko‘rsatilgan. Bu tamoyillar orasida resurslarni qayta ishlash, energiya samaradorligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy adolat mavjud. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yashil iqtisodiyot iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni uyg‘unlashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.

2-jadval. Innovatsion boshqarish usullari va ularning samaradorligi

Innovatsion usul	Samaradorlik
Sun’iy intellect (AI)	Resurslarni avtomatlashtirilgan boshqarish va chiqindilarni kamaytirish.
Katta ma’lumotlar (Big Data)	Ma’lumotlarni tahlil qilish orqali qarorlar qabul qilishni yaxshilash.
IoT (Internet of Things)	Resurslarni real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish.

2-jadvalda yashil iqtisodiyotni boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsion usullar va ularning samaradorligi ko‘rsatilgan. Bular orasida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), IoT (Internet of Things) va boshqa texnologiyalar mavjud. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, innovatsion yondashuvlar resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va energiya sarfini optimallashtirishga yordam beradi.

3-jadval. Atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni boshqarish natijalari

Ko‘rsatkich	An’anaviy usullar (%)	Innovatsion usullar (%)
Chiqindilarni kamaytirish	10	30
Suv resurslarini tejash	15	25
Energiya sarfini optimallashtirish	10	20

3-jadvalda atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni samarali boshqarish bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan. Jadvalda ko‘rsatilishicha, innovatsion boshqarish usullari orqali chiqindilarni 30% ga kamaytirish, suv resurslarini tejash va energiya sarfini 20% ga optimallashtirish mumkin. 3-jadbalda resurslarni boshqarishning an’anaviy va innovatsion usullari solishtirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, innovatsion yondashuvlar an’anaviy usullarga nisbatan ko‘proq samara beradi.

4-jadval. Yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlari

Ta’sir turi	Tavsif
Yangi ish o‘rinlari	Yashil texnologiyalar sohasida yangi ish o‘rinlari yaratilishi.
Aholining turmush darajasini	Atrof-muhitni muhofaza qilish orqali

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

oshirish	sog‘lom hayot sharoitlari yaratilishi.
Ijtimoiy tenglik	Resurslarni adolatli taqsimlash orqali ijtimoiy tenglikni oshirish.

4-jadvalda yashil iqtisodiyotni innovatsion boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlari ko‘rsatilgan. Bular orasida yangi ish o‘rnlari yaratish, aholining turmush darajasini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish orqali sog‘lom hayot sharoitlarini ta’minlash mavjud. 4-jadvalda yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlari diagrammada ko‘rsatilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham katta hissa qo‘sadi.

5-jadval: Global tajriba va O‘zbekiston uchun o‘rganilgan darslar¹

Davlat	Yashil loyihalar	Natijalar
Germaniya	Energiya samaradorligini oshirish loyihalari.	Energiya sarfini 40% ga kamaytirish.
Shvetsiya	Chiqindilarni qayta ishslash tizimini joriy etish.	Chiqindilarni 90% ga qayta ishslash.
Daniya	Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.	Energiya iste’molining 50% ni qayta tiklanadigan manbalaridan qoplash.

5-jadvalda dunyo davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar va ularning natijalari keltirilgan. Masalan, Germaniya, Shvetsiya va Daniya kabi davlatlarda yashil texnologiyalarni joriy etish orqali energiya sarfini 40% ga kamaytirishga erishilgan. 5-jadvalda O‘zbekiston uchun global tajriba asosida olingan darslar ko‘rsatilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni qo’llash orqali barqaror rivojlanishni ta’minlashi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil iqtisodiyotni innovatsion boshqarish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni samarali boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash mumkin. Innovatsion texnologiyalar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. O‘zbekiston uchun global tajriba asosida olingan darslar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.

Yashil iqtisodiyotni innovatsion boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Innovatsion yondashuvlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) va yashil iqtisodiyotga oid hisobotlar. Manba:United Nations Sustainable Development Goals

“O‘ZBEKISTONDAGI ILMIY YANGILIKLAR JURNALI”

25-Iyun, 2025-yil

- Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni samarali boshqarish va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.
- O‘zbekiston global tajriba asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amaliy qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin. Kelajakda ushbu sohada chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘sish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son
3. Jacques Defourny va Patrick Develtere. "The Social Economy: The Worldwide Making of a Third Sector" 1999 University of Wisconsin Press.
<https://uwpress.wisc.edu/books/0917.htm>
4. Tim Jackson, Prosperity without Growth: Foundations for the Economy of Tomorrow, 2nd Edition (Abingdon, Oxon ; New York, NY: Routledge, 2017), Jason Hickel and Giorgos Kallis, “Is Green Growth Possible?,” New Political Economy 25, no. 4 (June 6, 2020): 469–86.
[https://www.routledge.com/Prosperity-without-Growth-Foundations-forthe-Economy-of-Tomorrow-2nd/Jackson/p/book/9781138935419](https://www.routledge.com/Prosperity-without-Growth-Foundations-for-the-Economy-of-Tomorrow-2nd/Jackson/p/book/9781138935419) ;
5. <https://doi.org/10.4324/9781351284004>
6. “Yashil iqtisodiyot” va uning rivojlanish bosqichlari. CyberLeninka.
https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-iqtisodiyot-va-uning-rivojlanish-bosqichlari?utm_source=
7. Yormonqulova N. “Yashil iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati va O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”. ResearchGate. DOI:[10.54613/ku.v11i11.951](https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.951)
8. Berdiyeva Dilfuza Axatovna. “Yashil iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida uy-joy kommunal xo‘jaligining dolzarb muammolari va yechimlari”. November 2024.Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2(11):204-208. DOI:[10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss11-pp204-208](https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss11-pp204-208)
9. Begmatova Shaxlo Faxriddin qizi. Yashil iqtisodiyotda investitsiya samaradorligini oshirish: barqaror o’sish strategiyasi va imkoniyatlari. (2023). INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 1(9), 345-351.
<https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/1490>